

Date: 17th October-2025

JADIDLAR ASARLARIDA UNDALMANING IJTIMOIIY VA DIDAKTIK VAZIFASI.

Ro`zimurodova Sitara Maqsiddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

sitoraruzimurodova050@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida jadid adiblar asarlarida undalmaning ijtimoiy va didaktik vazifasi tahlil qilinadi. Undalma birliklari jadid adiblar tilida nafaqat badiiy-estetik vosita, balki ma'naviy-ma'rifiy ta'sir kuchiga ega kommunikativ birlik sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Tadqiqot davomida Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari jadid adiblar asarlaridan olingan misollar lingvopragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Undalmalarning xalqni uyg'otish, milliy g'ururni shakllantirish, ta'lim-tarbiyani ilgari surishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, ularning kommunikativ niyatni ifodalash, muallif va o'quvchi o'rtasida ijtimoiy muloqotni shakllantirishdagi funksional xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari undalmalarning o'zbek tili taraqqiyotida hamda jadidlar ma'rifiy g'oyalarini yetkazish jarayonidagi ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, undalma, murojaat, kommunikativ birlik, ijtimoiy vazifa, didaktik maqsad, ma'rifatparvarlik, pragmatik tahlil, muallif nutqi, milliy uyg'onish.

Kirish. XX asr boshlarida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati o'zbek xalqining ma'naviy, madaniy va ijtimoiy hayotida tub burilish yasadi. Jadid adiblari millatni uyg'otish, zamonaviy tafakkurni shakllantirish, ta'lim-tarbiyani isloh qilishdek yuksak maqsadlarni oldilariga qo'ygan edilar. Ularning asarlari nafaqat badiiy, balki didaktik va ijtimoiy mazmun bilan sug'orilgan bo'lib, xalqni ma'rifat sari chorlash, milliy o'zlikni anglashga undash kabi g'oyalar bilan yo'g'rilgan. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, jadid adiblar asarlarida undalma (murojaat) birliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki undalma orqali muallif o'z fikrini bevosita o'quvchiga yoki jamiyatga yo'naltiradi, shaxslararo muloqotni jonlantiradi, o'zining ma'naviy pozitsiyasini ifodalaydi. Jadidlar undalmadan milliy o'zlikni uyg'otuvchi, ma'rifatparvarlik g'oyasini targ'ib qiluvchi, ijtimoiy uyg'onishni ifodalovchi kuchli kommunikativ-pragmatik vosita sifatida foydalanganlar.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o'zbek tilshunosligida jadid adabiyotining badiiy til xususiyatlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, undalmaning ijtimoiy va didaktik vazifasi, uning kommunikativ hamda pragmatik imkoniyatlari yetarlicha tahlil etilmagan. Shu bois mazkur mavzuni o'rganish jadidlar asarlaridagi nutq madaniyati, muallifning o'quvchi bilan muloqot uslubi va ma'rifiy g'oya ifodasini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.



Date: 17th October-2025

Tadqiqotning maqsadi – jadid adiblar asarlarida undalmalarning ijtimoiy va didaktik vazifasini aniqlash, ularning ma’no, shakl va uslubiy imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ularning kommunikativ-pragmatik rolini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Undalmaning tilshunoslikdagi nazariy asoslarini tahlil qilish.
- Jadid adiblar tilida uchraydigan undalmalarning shakl, mazmun va uslubiy xususiyatlarini aniqlash.
- Undalmalarning ijtimoiy, ma’rifiy va didaktik funksiyalarini yoritish.
- Jadidlar asarlarida undalma orqali amalga oshirilgan kommunikativ ta’sir mexanizmini izohlash.
- Jadidlar nutqida undalmaning milliy uygʻonish gʻoyalarini ifodalashdagi oʻrnini belgilash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, undalma birliklari jadid adiblar tili misolida ijtimoiy-ma’naviy muloqot vositasi, didaktik ta’sir unsuri va pragmatik strategiya sifatida ilk bor kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Jadidchilik davri oʻzbek adabiyoti va ijtimoiy tafakkurida yangi nutq madaniyati, ma’rifatparvarlik va milliy uygʻonish gʻoyalarini ifodalagan davr sifatida ajralib turadi. Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Choʻlpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi jadid adiblari oʻz asarlarida millatni uygʻotuvchi, oʻquvchini oʻylantiruvchi, toʻgʻridan-toʻgʻri murojaat shakllarini — undalmalarni faol qoʻllaganlar. Ularning nutq uslubida undalmalarning ijtimoiy va didaktik vazifasi oʻta kuchli ifoda topgan.

Fitratning “Munozara”, “Qiyomat”, “Rahbari najot” asarlarida undalma usuli orqali xalqni fikrlashga, oʻzligini anglashga da’vat etuvchi soʻzlar qoʻllanadi. Masalan, “Ey musulmon birodar!”, “Ey millat!”, “Ey yoshlar!” kabi murojaatlar undalmaning milliy uygʻonish va siyosiy-ma’naviy ogohlik maqsadida ishlatilganini koʻrsatadi.

Avloniy oʻzining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida oʻquvchilarga murojaat shakllarini didaktik vosita sifatida ishlatadi. U “Ey bolalar!”, “Ey oʻquvchi!”, “Ey xalqim!” kabi undalmalar orqali oʻz asarining ta’sir kuchini oshiradi. Bu holat undalmaning axloqiy-tarbiyaviy (didaktik) funksiyasini ochib beradi. Choʻlponning she’rlari va “Kecha va kunduz” romanida undalmalarning ruhiy-emotsional funksiyasi sezilarli. U “Ey Vatan!”, “Ey sevgi!”, “Ey koʻnglim!” kabi murojaatlar bilan ichki kechinmalarni kuchaytiradi. Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlarida esa undalma ijtimoiy tanqid vositasi sifatida ishlaydi. Sahna asarlarida undalma xalqni johillikdan, gʻaflatdan chiqarishga xizmat qiladi. Demak, jadid adiblarida undalma shakli oddiy grammatik birlik emas, balki ijtimoiy-ma’naviy uygʻotuvchilik vositasidir.

Undalmani pragmatik va kommunikativ nuqtai nazardan oʻrganish, asosan, Oʻzbek tilshunosligi va matn lingvistikasi tadqiqotlari bilan bogʻliqdir. Oʻzbek tilshunosligida matnning kommunikativ-pragmatik jihatlari S. Muhamedova, M. Abdupattoyev, M. Saparniyozova kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan. Bu tadqiqotlarda matnning semantik yaxlitligi, adresatga ta’sirchanlik va nutq aktlari tahlili masalalari yoritilgan. Ushbu



Date: 17th October-2025



yondashuvlar jadid asarlaridagi undalmani ham zamonaviy lingvopragmatik mezonlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, M. Abdupattoyevning “O‘zbek matnida supersintaktik butunliklar” nomli asarida matnning emotsional va ta’sirchan tuzilmalari o‘rganilgan. Jadidlar undalmalari ham matnning supersintaktik darajasida — ya’ni butun fikr blokini tashkil etuvchi ta’sirchan segmentlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama va natijalar. Mazkur tadqiqot davomida jadid adiblarining asarlarida undalmaning ijtimoiy hamda didaktik vazifasi lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, undalma jadidlar asarlarida faqat grammatik birlik emas, balki ijtimoiy ta’sir va ma’rifiy uyg‘otish vositasi sifatida faol ishlatilgan.

Avvalo, undalmalarning ijtimoiy vazifasi jadid adabiyotining asosiy g‘oyasi — millatni uyg‘otish, ma’rifatga chorlash, jaholat va nodonlikka qarshi kurash g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq. Fitratning “Ey millat!”, Avloniyning “Ey o‘quvchi!”, Cho‘lponning “Ey Vatan!” kabi undalmalari orqali mualliflar xalqni befarqlikdan, g‘aflatdan chiqishga, o‘zlikni anglashga undaydilar. Bu undalmalar o‘quvchida javob reaksiyasini, ichki mulohazani uyg‘otadi, ya’ni kommunikativ jarayonda muallif va o‘quvchi o‘rtasida faol muloqot hosil qiladi. Ikkinchidan, undalmalarning didaktik vazifasi jadid adiblarining ma’rifatparvarlik maqsadlari bilan bog‘liq. Avloniy va Hamza asarlarida undalma o‘quvchi, talaba, xalq yoki farzand obraziga qaratilib, ularni bilim olishga, axloqni yuksaltirishga, mehnatga undaydi. Undalma bu o‘rinda ta’lim-tarbiyaviy vosita vazifasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, undalma shaklidagi murojaatlar jadidlar nutqida emotsional-psixologik kuchga ega. Ular o‘quvchi qalbiga bevosita ta’sir etish, his-tuyg‘ularni uyg‘otish, harakatga undash vositasidir. Pragmatik jihatdan esa undalmalarda illokutsion maqsad (chaqiriq, ogohlantirish, da’vat) va perlokutsion natija (ta’sir, o‘zgartirish, rag‘batlantirish) kuzatiladi. Shuningdek, undalmalarning matn strukturasidagi o‘rni ham muhim. Ular asar boshlanishida yoki muhim fikr yakunida joylashib, o‘quvchining diqqatini asosiy g‘oyaga qaratadi. Bu jihatdan undalma supersintaktik butunlikning markaziy yadrosini tashkil etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, jadid adabiyotida undalma milliy uyg‘onish davrining ruhiy ehtiyojiga javob bergan. U xalqni birlashtiruvchi, islohotga undovchi va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Behbudiy M. Padarkush. – Samarqand, 1913.
2. Cho‘lpon (Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li). Kecha va kunduz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1988.
3. Fitrat A. O‘g‘uzxon; Sayyohi hindi; Munozara; Tilimiz; Milliy til va adabiyot. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, turli yillar.
4. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
5. Hakimov M. O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. – Toshkent, 1994.

Date: 17th October-2025

6. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini.: filol. fanlari dokt. diss. avtoref. – Toshkent, 2001.
7. Hakimov M. O'zbek tili pragmatikasini o'rganish. – Farg'ona, 2011.
8. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Zaharli hayot; Boy ila xizmatchi; Yangi saodat. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.

